

**O‘zbekiston Respublikasi  
Sog‘liqni saqlash vazirligi**

***5510300 - Tibbiy profilaktika ishi***  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent**

## **SO‘Z BOSHI**

### **1. ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika tibbiy ta’limni rivojlantirish markazi;
- Toshkent tibbiyot akademiyasi

### **2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil «2» oktyabrdagi 564- sonli buyrug‘i.

### **3. JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.

Mazkur malaka talabni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilib O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>5510300 - Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.2.	5510300 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
2.	<b>5510300 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar .....</b>	<b>6</b>
2.1.	Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar .....	6
2.2.	5510300 - Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari .....	6
3.	<b>5510300 – Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar .....</b>	<b>8</b>
3.1.	O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar .....	8
3.2.	5510300-Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi .....	14

## 1. 5510300 – Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

**5510300 – Tibbiy profilaktika ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O'quv reja va fan dasturining me'yoriy muddati va mos malaka(daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

### O'quv reja va fan dasturining muddati va bitiruvchilarning malaka(daraja)si

O'quv reja va fan dasturining nomi	Malaka (daraja)	O'quv reja va fan dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriatning o'quv reja va fan dasturi	Bakalavr	5 yil

#### 1.1. Qo'llanish sohasi

**1.1.1.** Oliy ta'limning ushbu malaka talabi **5510300- Tibbiy profilaktika ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2.** Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

#### 1.1.3. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

–mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

–ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

–o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

–bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

–oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

–oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

–ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

#### 1.2. 5510300-Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

##### 1.2.1. 5510300 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

**5510300 – Tibbiy profilaktika ishi** bakalavriat ta'lim yo'nalishi – sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari (respublika, viloyat, shahar, tuman va tarmoq (O'zbekiston havo yo'llari, O'zbekiston temir yo'llari va boshqalar) Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazlarida, OITS qarshi kurash markazlarida, patologik anatomiya markazlarida, sud-tibbiyot ekspertiza markazlarida, atrof-muhit ob'ektlarini sanitariya holatini

o'rganish, gigienik baholash va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini olib borish; aholi yashash joylari atrof-muhitini sanitariya muhofazasiga yo'naltirilgan tibbiy-profilaktik muammolar bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog'liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya nazorat Bosh boshqarmasida sanitariya-gigienik reglament va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq qilish faoliyatini olib borish; sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inlarida sanitariya-gigienasi sohasida kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. 5510300–Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- sanitariya-gigienik reglament va me'yoriy xujjatlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar; tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi; ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin;

- ilmiy-tadqiqot jarayoni.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin*

### **5510300–Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- *Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi (DSENM) nazorat ostidagi ob'ektlarda (xizmat ko'rsatish shaklidan qat'iy nazar) ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratlari bo'yicha amaliy faoliyatini mustaqil olib borish;*
- *sog'lomlashtirish, sanitar-gigienik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirishi va o'tkazish;*
- *ishlovchilar orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirish;*
- *gigiena yo'nalishida qo'llanilayotgan ilg'or profilaktik tadbirlarni o'rganishi va amaliyotga tadbiiq etish;*
- *gigiena yo'nalishida profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish.*

### **1.2.3. 5510300–Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *Tibbiy-profilaktik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *tibbiy– ijtimoiy;*
- *ilmiy-tadqiqot;*

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

### **1.2.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari**

**5510300 – Tibbiy profilaktika ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin:

- 5A510301- *Gigiena (yo'nalishlar bo'yicha, bolalar va o'smirlar gigienasi, ovqatlanish, kommunal, mehnat, radiatsion gigienasi, epidemiologiya bakteriologiya, mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya) tanlov mutaxassisliklari*
- 5A510302 – *Atrof muhit va inson salomatligi;*
- 5A510115-*Sog'liqni saqlashni boshqarish (jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish);*
- 5A510113-*Tashxisning instrumental va funksional usullari (yo'nalishlar bo'yicha);*
- 5A510118 - *Morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha);*
- 5A510126–*Farmakologiya magistratura mutaxassisliklari hamda klinik ordinatura bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda o'qishni davom ettirishi mumkin.*

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy - tadqiqot olib borish mumkin.

## **2. 5510300-Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar**

### **2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **Bakalavr:**

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistratura-davlat oliy ta'limni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

**2.2. 5510300 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari**

### **Tibbiy – profilaktik faoliyatida:**

- Davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazi (DSENM) nazorat ostidagi ob'ektlarda (xizmat ko'rsatish shaklidan qat'iy nazar) ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratlari bo'yicha amaliy faoliyatini mustaqil olib borishi;
- sog'lomlashtirish, sanitar-gigienik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirishi va o'tkazishi;
- ishlovchilar orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirishi;
- gigiena yo'nalishida qo'llanilayotgan ilg'or profilaktik tadbirlarni o'rganishi va amaliyotga tadbiq etishi;
- gigiena yo'nalishida profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirishni egallash va baholash ***qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.***

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqarishi;
- davlat sanitariya–epidemiologiya nazoratini tashkillashtirish va boshqarishi;
- sanitariya qoida va me'yorlar, gigienik normativlar, davlat mehnat xavfsizligi standartlari tizimi, qurilish me'yor va qoidalarini ishlab chiqarishda amaliy va uslubiy yordam berishi;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishi;
- sanitariya–epidemiologiya nazorati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tadbiq qilishi;
- sanitariya–epidemiologiya nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi va boshqarishi;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishi;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash ***qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.***

**Tibbiy – ijtimoiy faoliyatida:**

- ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda oila va alohida aholi guruhlariga tibbiy-ijtimoiy, demografik va psixologik tahdid omillarini hisobga olgan holda xizmat turlarini tashkillashtirishi va xizmat ko'rsatishi;
- aholi o'rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash qaratilgan ***qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak.***

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tibbiy profilaktika ishiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etishi;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirishi va topishi;
- tibbiy profilaktika ishiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va horijiy ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganishi;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganishi;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda, davlat sanitariya epidemiologiya nazorati markazlarida eksperimental tadqiqotlar o'tkazishi, ularning natijalariga ishlov berishi, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarishi;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlashi, soha oid adabiyotlarni ekspertizasini amalga oshirishda qatnashishi;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashishi;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish, ilmiy-amaliy mavzuviy jurnallarga maqolalarni tayyorlash *qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak.*

### **3. 5510300-Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar**

*5510300-Tibbiy profilaktika ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

gumanitar va tabiiy-ilmiy;

umumkasbiy;

ixtisoslik;

qo'shimcha.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv rejaga kiritilgan iqtisoslikga oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va o'quv amaliyoti Oliy ta'lim muassasasi hamda davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazlarida o'tkaziladi.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun malakaviy amaliyotlari davolash – profilaktika muassasalarida o'tkaziladi.

#### **3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar**

##### ***Gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:***

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga qo'yiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda matematik tushunchalar va tasavvurlar umumiyliigi, matematik usullar va modellar, informatsion tizim, tibbiyotda lotin tili terminologiyasining mohiyati va ahamiyati, terminoelementlar bo'yicha klinik atamalar, fizikaviy, kimyoviy va biologik jarayonlarning o'zaro ta'sirlashuvi, zamonaviy tibbiy bilim olishni o'ziga xosligi va rivojlanishning asosiy bosqichlari, biofizika fanining mohiyati, vazifalari, organizm a'zo va to'qimalarining faoliyati asosida yotuvchi umumiy fizikaviy va biofizikaviy qonuniyatlari, fizikaviy qonuniyatlarning tirik organizmdagi jarayonlarga tatbiq etish, kimyoning asosiy qonunlari, organik birikmalarning tuzilish nazariyasi, organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, patologik holatlarda moddalar almashinuvining buzilishi haqida tasavvurlarni shakllantirishi;

tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi, tibbiyot sohasida fundamental va klinik fanlarni o'zlashtirish uchun anatomiya fanining zarurligi, organizmning o'sishi, shakllanishi, rivojlanishining asosiy qonuniyatlarining mohiyati, ularning tashqi muhit bilan munosabatini ta'minlayotgan tizimlar hamda ularning yoshga nisbatan o'zgarishi, gistologiya, embriologiya, sitologiya fanining nazariy va ilmiy asoslariga tayangan holda hujayra, to'qimalarning turlari, umumiy tuzilishi va vazifalari, a'zolarining taraqqiyot manbalari, shakllanish muddatlari, umumiy tuzilish asoslari, vazifalari va yoshga ko'ra bo'ladigan o'zgarishlari, odam



embriologiyasi bosqichlari, ularning xususiyatlari, a'zolar, fiziologiyaning maqsad va vazifasi, uning umumiy amaliyot vrachi faoliyatidagi ahamiyati, zamonaviy tibbiy mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya fani, uning maqsad va vazifalari, odam hayot faoliyati jarayonida fiziologik funksiyalarning boshqarilishi va asosiy qonuniyatlari haqidagi nazariy hamda ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

Patologiyaning asosiy tuzilishi (mikroskop va gistologik) belgilari. Hujayralarning umumiy patologiyasi. Zaharlanish va nekroz, qon va limfa aylanishining buzulishi, yallig'lanish. Immunopatologik va kompensator-moslashish jarayonlari, shishlar. Azo va tizimlarda kasallanish xolatidagi xususiy patologik morfologiya. Yuqumli kasalliklarning patologik anatomiyasi.

Kasalliklarni rivojlanishi va tuzilish qonuniyatlari va mexanizmi asoslari. «kasallanish oldi» va kasallanish tushunchasi, ijtimoiy-ekologik omillarning ahamiyati, etiologiya va patogenezning umumiy masalalari. Atrof- muhit ifloslanishini kasallanish sabablarining yangi omillari maxsus va umumiy kasallanish holatlarining bir-biriga bog'liqligi. Patologiyada irsiyatning va organizmning reaktivligini buzilishi, immuopatologik ko'rinishlari. Patologik jarayonlar patofiziologiyasi: tanada qon aylanishini, to'qimalar o'sishi va metabolizmning buzilishi, yallig'lanish, isitma, gipoksiya. Azo va to'qimalarning patologiyasida funksional buzulishlarning tafsiloti. Ona-homila-yo'ldosh tizimi va yoshi bo'yicha patofiziologiyaning o'ziga xos tomonlari, ekstremal xolatlar va ularni korreksiya qilishning asosiy tamoyillari.

ta'lim yo'nalishi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim;

#### **Umumkasbiy fanlar bloki:**

matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

Dori vositalari, ularning inson va hayvon organizmiga tasir mexanizmi. Umumiy farmakologiya, dori vositalarining farmakokinetikasi. Umumiy toksikologiya-ning asoslari. Xususiy farmakologiya-turli azo va tizimlarga tasiri, tasir etish mexanizmi bo'yicha dorivor moddalarning qayd ro'yxati. Qo'llanishi bo'yicha mos keladigan va kelmaydigan ko'rsatmalar. Yoshga nisbatan tasirining o'ziga xos tomonlari. Qo'shimcha va zaharlilik xususiyatlari, asoratlari, dori vositalaridan zaharlanganda yordam ko'rsatish. Umumiy retseptura, doza, retseptning shakllari. Turli patologik holatlar uchun dori yozish yo'llari.

Tirik fuqorolarga yetkazilgan tan jarohatlarini ekspertizasi. O'lim xolatini, mexanik jarohatlarni, zaharlanish xolatlarini aniqlash bo'yicha murdalarni ekspertiza qilish. Daliliy ashyolarni ekspertizasi, rasmiy hujjatlarni to'ldirish

Bemorlarni laboratoriya asboblari (laborator va klinik) tekshiruvlarga tayyorlash. Ichki kasalliklarni tashxisidagi belgilar va ko'rinishlar-etiologiyasi, patogenez, klinikasi, davolash usullari, profilaktikasi. Qoldirib bo'lmaydigan sharoitlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Asosiy tibbiy hujjatlar.

Kutilmagan holatlarda va tabiiy ofatlarda zarar ko'rganlarga va shikastlanganlarga kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy-terapevtik yordam ko'rsatish. Nurlanish kasalligi, tashxis qo'yish va davolash, saralash va kasallarni evakuatsiya qilish.

Sil kasalligi etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenez, xatarli guruhlari, tashxis usullari, erta tashxis qo'yish, davolash, dispanserizatsiya, profilaktika. Homilador va keksa yoshdagi insonlarda sil kasalligi. Maxsus profilaktika.

VTEK (shifokorlik mehnat ekspertizasi kompleksi), ijtimoiy sohalar. Etiologiyasi, patogenez, klinikasi, tashxis usullari, oqibati va eng ko'p tarqalgan kasb kasalliklarining davosi. Vrachlik mehnat ekspertizasi, profilaktikasi. Profilaktik tibbiy ko'riklar. Kasb kasalliklarida ish bilan taminlash. Tibbiy hujjatlar.

Teri tanosil kasalliklari etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, klinikasi, laboratoriya tashxisi va davolash asoslari, profilaktikasi. Dispanseri-zatsiya. Teri, kasbga oid teri, tanosil, hamda jinsiy yo‘l bilan o‘tadigan kasalliklar profilaktikasi. OITS ni profilaktikasi.

Yuqumli kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, laboratoriya- asboblari tashxisi, davosi, dispanserizatsiya va yuqumli kasalliklarni eng ko‘p tarqalgan gijja kasalliklarini oldini olish, asoratlari. Kechiktirib bo‘lmaydigan yordam ko‘rsatish. Yuqumli kasalliklarni erta aniqlash.

Asab tizimining klinik anatomiyasi. Asab kasalligini aniq tashxisi, asosiy belgilari, etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tekshirish usullari, asoratlari, davosi. Kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam. Markaziy va periferik asab tizimining orttirilgan, irsiy va kasb kasalliklarida ish bilan taminlash. Somatonevrologiya.

Umumiy psixopatologiya va xususiy psixiatriya. Asosiy ruhiy psixopatologik sindromlar. Shoshilinch holatlar. Psixoprofilaktika va psixogigiena asoslari. Bemorning ruhiy faoliyatining asosiy qonuniyatlari, sog‘ va kasallik holatining chegaralari. Tibbiy psixologiya asoslari, deontologiya, etika, psixogigiena.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ko‘rsatmalar. Shug‘ullanuvchilar ustidan tibbiy nazorat o‘tkazish. Organizmning jismoniy rivojlanganligini aniqlash va baholash. Sport inshoatlariga va sportchilar gigienasiga (bosh kiyim, poyafzal, ovqatlanishi, dam olish, kun tartibi) talablar. Organizmning ish bajarish qobiliyatini, tiklanish jarayonlarini aniqlash va olingan natijalarni baholash. Tashqi nafas apparatining funksional holati, aniqlash usullari va baholash. Vrach-pedagogik nazorati va qo‘llaniladigan usullari. Vrach nazorati kartasini (Shakl 061/u) rasmiylashtirish va himoya etish. Shifobaxsh jismoniy tarbiyaning umumiy asoslari: vosita, shakl, harakat tartiboti. Samaradorligini aniqlash usullari.

Insonlarning xastaliklarini ultratovush, rentgen (shu jumladan kompyuter tomografiyasi), radionukleid va yadro – magnit rezonans tashxisi. Xavfli o‘smalarni va o‘sma bo‘lmagan xastaliklarni nur bilan davolash.

Bemorlarni laboratoriya va asboblar yordamida tekshirish usullariga tayyorlash. Aseptika, antiseptika. Anesteziologiyaning asoslari, klinik va laboratoriya tekshirish usullari. Qon ketishda va jarohatlarda birinchi yordam ko‘rsatish. Qon quyish, jarrohlik muolajalarining turlari. Operatsiyadan oldingi tayyorgarlik va operatsiyadan keyingi davr. Asoratlar, ularni oldini olish. Eng ko‘p tarqalgan o‘tkir va surunkali jarrohlik kasalliklarini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, davosi, asosiy tibbiy hujjatlar.

Mehnat faoliyatini tiklash. Ijtimoiy rehabilitatsiya, protezlash, travmatizm (jarohatlanish, xonadonda, transportda, ishlab chiqarishda, sportda, maktabda, qishloq xo‘jaligida) sabablari va oldini olish choralari, etiologiyasi, patogenezi, tashxis qo‘yish va jarohatlangan va tayanch harakat apparatlarini singan bemorlarga birinchi yordam ko‘rsatish. Kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatish. Favqulotda xolatlarida va tabiiy ofatlarda talofat ko‘rganlarga birinchi yordam ko‘rsatish va transport immobilizatsiyasini bajarish.

Otorinogologiya: quloq, halqum, xiqildoq va burun kasalliklarini etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tekshirish usullari, asoratlari, davolash va profilaktikasi, ularni boshqa azo va tizimlarga tasiri. Kechiktirib bo‘lmaydigan xolatlarida tez tibbiy yordamini ko‘rsatish. Tashqi muhit va ishlab chiqarish muhiti omillarini tasiri.

Og‘iz bo‘shlig‘i va tishlarning kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxisi, ichki azo kasalliklari bilan bog‘liqligi, davolash usullari, profilaktikasi.

Ko‘zning yoshga nisbatan anatomiyasi. Fiziologik optika, ko‘rishning optik korreksiyasi. Ko‘rish azolarining tug‘ma, orttirilgan va kasbiy kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxisi, oqibatlar, asoratlari, davolash tamoyillari profilaktikasi. Kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatish. Ko‘z jarohatlari – birinchi yordam ko‘rsatish, oldini olish, ekspertizasi va profilaktikasi. Bolalik yillari davrlari va ularning o‘ziga xos tomonlari. Bolalarning rivojlanishiga tasir etuvchi omillar. Bolalar jismoniy rivojlanishining monitoringi. Ko‘rak suti bilan boqish, go‘daklarni ovqatlantirish usullari. Bolalar orasida keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, asoratlari, differensial tashxis, birlamchi, ikkilamchi va

uchlamchi profilaktikasi. Bolalar immun tizimining o'zigi xosligi va rivojlanish davrlari. Profilaktik emlashlar. Shoshilinch xolatlarda birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.

Fanning nazariy va amaliy asoslari. Irsiy kasalliklar bo'yicha xavf guruhlari. Skrining markazlari. Gen va xromosom kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, profilaktikasi. Tashxislash uchun qo'llaniladigan usullar.

Ayollar organizmining o'ziga xos tomonlari. Homiladorlik davrida, tug'ganda va tug'gandan keyingi davrda bo'ladigan fiziologik va patologik jarayonlar. Homiladorlik – tashxis usullari, homila xolatini aniqlash usullari. Ekstragenital patologiya, gestozlar, klinikasi va davolash. Homiladorlikni fiziologik jarayonini buzilish sabablari. Fiziologik va patologik tug'ishlar. Kechiktirib bo'lmaydigan xolatlarda tez yordam, profilaktika. Ayollarning reproduktiv faoliyatini va uning har xil yoshdagi davrlarda va ishlab chiqarishning zararli omillarining tasiri natijasida buzilishi. Ayollar jinsiy azolari kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxis usullari, davosi va profilaktikasi. Abortlar, bepushtlik. Oilani rejalashtirish, kontratsepsiya.

Aholi salomatligi-uni o'rganish usullari, ijtimoiy-gigienik ahamiyati, ijtimoiy-gigienik omillar va turmush tarzini aholi salomatligini shakllanishidagi tutgan o'rni. Eng muhim xastaliklar, ularning ijtimoiy-gigienik ahamiyati. Sog'liqni saqlashning nazariy asoslari, shaxar va qishloq aholisiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil qilish, onalik va bolalikni himoyalash, sanitariya epidemiologiya xizmati, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil qilish, sog'liqni saqlashni boshqarish, rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash asoslari. Boshqarish darajalari, davrlari, menedjment usullari, menedjmentga ta'sir etuvchi omillar. Zamonaviy menedjrlarning tafsilotlari, menedjning boshqaruvchanlik qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar. Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruvchanlik toifalari, marketing va uning tamoyillari, ehtiyojlari, bozor, marketing xizmati, bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoning shakllanishi. Marketingni boshqarish, ehtiyojlik holati va bozor iqtisodiyoti sharoitida salomatlikni himoyalashni tashkil qilish.

Radiatsion gigiena. Organizmga nurlanuvchi radiatsiyalarning ta'sirini asosiy qonuniyatlari. Tashqi va ichki nurlanishning yo'l qo'yiladigan darajasi, bu radiatsion xavfsizlikning asosi ekanligi. Canitar dozimetrik nazorat. Yopiq ionlantiruvchi nurlanuvchi manbalar bilan ishlashda himoyalash tamoyillari. Radioaktiv ifloslanishdan tashqi muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish. Radiatsion avariya, turlari va ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir tadbirlar. Harbiy gigiena. O'zbekiston Respublikasida qurolli kuchlarni sanitariya-gigiena ta'minotini tashkil etish. Qo'shinlarni joylashishi, dala sharoitlarida qo'shinlarning suv ta'minoti va sifatini gigienik nazorati, harbiy xizmatchilarni ovqatlanishi ustidan sanitariya nazorati o'tkazish, ba'zi qo'shin turlarida mehnat gigienasi. Ommaviy qirg'in qurollarini ishlatish sharoitida sanitariya nazoratining vazifalari.

Yuqumli kasalliklarni o'rganishda epidemiologik yondoshuv. (Tibbiy ta'lim tizimida va zamonaviy tibbiyot fanlari orasida epidemiologiyani tutgan o'rni. Epidemiologiyani rivojlanish tarixi), Epidemiologik tekshiruv usullari, o'sma va yurak - qon tomirlar kasalliklar epidemiologiyasi. Noinfeksion epidemiologiya to'g'risida tushuncha. Epidemik jarayon to'g'risidagi ta'limot, Epidemik jarayon ko'rinishlari va ularning interpretatsiyasi, Yuqumli kasalliklarning yuqish mexanizmi va tabiiy o'choqlilik nazariyalari. Parazitar tizimning o'z-o'zini boshqarish nazariyasi, Yuqumli kasalliklar tasnifi va qo'zatuvchilarning evolyutsion taraqqiyoti., Sog'liqni saqlash tizimining boshlang'ich bo'g'inlarida (birlamchi zvenosi ) profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni tashkil qilish. , Yuqumli kasalliklar kabineti ishi bilan tanishish, Hayvonlar va kasallik chaqiruvchi qo'zatuvchilarni tarqatuvchi bo'g'imoyoqlilarning epidemiologik ahamiyati. Zooantropozonoz kasalliklarda sanitariya-veterinariya tadbirlari, O'choqli dezinfeksiya, dezinfeksiya, deratizatsiya. DPM larda DDD va sterilizatsiyaning sifati va samaradorligi., DPM da MSB ishi bilan tanishish., Immunoprofilaktika. Profilaktik emlash. Emlash kalendari chet el adabiyotlariga taqqoslash., Oilaviy poliklinikalarda emlash ishlarini tashkilashtirish, Sog'liqni saqlash tizimining boshlang'ich bo'g'inlarida (birlamchi zvenosi)da emlash ishlarining sifati va samaradorligi, Ich

terlama, paratif A i V etiologiyasi, epidemiologiyasi., Ich terlama, paratif A i V profilaktikasi, Salmonellezlar tavsifi.Salmonellezlarda epidemik jarayonning namoyon bo'lishi, Salmonellezlar epidemiologiyasi, profilaktikasi, Shigellezlar epidemiologiyasi va profilaktikasi, Esherixiozlar epidemiologiyasi va profilaktikasi, Virusli gepatitlar tasnifi. Enteral gepatitlarning epidemiologiyasi va profilaktikasi, Hepatit V epidemiologiyasi va profilaktikasi, Hepatit S, D epidemiologiyasi va profilaktikasi, Poliomielit epidemiologiyasi va profilaktikasi, Vabo epidemiologiyasi va profilaktikasi, Vabo kasalligini aniqlashda uchastka shifokorining vazifalari, Ichak iersiniozlari epidemiologiyasi va profilaktikasi, Bakteriologik laboratoriyaning ish rejimi bilan tanishish., Rotavirusli infeksiya larning epidemiologik xususiyatlari, Gripp, ORVI va Atipik pnevmoniya epidemiologiyasi va profilaktikasi, Difteriya. Epidemiologiyasi va profilaktikasi, Ko'kyo'tal. Epidemiologiyasi va profilaktikasi, Qizamiq. epidemiologiyasi va profilaktikasi, Meningokokk infeksiyasi epidemiologiyasi va profilaktikasi, Tepki. Epidemiologiyasi va profilaktikasi, Qizilcha epidemiologiyasi va profilaktikasi, Nozokomial infeksiyalari epidemiologiyasi va profilaktikasi. Streptokokkozlar epidemiologiyasi va profilaktikasi, Harbiy epidemiologiyaning nazariy va uslubiy asoslari Harbiy holat vaqtida sanitariya-epidemiologiya muassasalari ishining mazmuni va uni tashkillashtirish, Bioterrorizm. Dushmanning bakteriologik quroli. Tibbiy evakuatsiya bosqichlarida qo'shinlarni bakteriologik quroldan himoyalash asoslari, Tuberkulez epidemiologiyasi va profilaktikasi, Epidemiologik nazoratning mazmuni va uni tashkil qilish., RET o'tkazish. Kasallanishning ko'p yillik dinamikasi tahliliy usullari. Kasallanishning yillik dinamikasi tahlili. Kasallanishning epidemiologik belgilariga binoan tahlili. Epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni rejalashtirish. Operativ epidemiologik tahlilni tashkillashtirish va o'tkazish usullari. Quturish kasalligining epidemiologiyasi va profilaktikasi. Qoraqsoqning epidemiologiyasi va profilaktikasi. Kuydirgining epidemiologiyasi va profilaktikasi. Rikketsiozlar epidemiologiyasi va profilaktikasi. (Kusitmasi, kanali rikketsioz, Astraxan toshmali isitmasi, Toshmali tif, Brill kasalligi epidemiologiyasi va profilaktikasi). O'lat kasalligining epidemiologiyasi va profilaktikasi., O'latga qarshi kiyim-bosh turlari. Qon infeksiyalari. Gemorragik isitmalar epidemiologiyasi va profilaktikasi, Lassa, Ebola, Denge, G'arbiy Nil isitmasi, Sarik isitma epidemiologiyasi va profilaktikasi. O'zbekiston Respublikasida Davlat epidemiologik nazoratini tashkillashtirish va o'tkazish. Tuman DSENMning epidemiologiya bo'limi strukturasi, shtatlari, ish faoliyatini tashkillashtirish prinsipi. DSENM epidemiologiya bo'limining analitik ish faoliyati. DSENM epidemiologiya bo'limida amaliy ish bajarish, Immunoprofilaktika bo'yicha epidemiologik nazoratni o'tkazish va tashkillashtirish. Kengaytirilgan immunizatsiya dasturi muammolari va istiqbollari. Aholi orasida dezinfeksiya xizmatini tashkillashtirish. Dezinfeksiya bo'limining strukturasi va ish faoliyati, dezinfeksiya bosqichlari. O'tkir ichak infeksiyalarida epidemiologik nazoratni tashkillashtirish, Ichak guruxi kasalliklarida epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Ich terlamada va bakteriya tashuvchilikda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va o'tkazish, umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlovchilarga nisbatan o'tkaziladigan chora-tadbirlar. Salmonellyoz kasalliklari ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish sabablarini aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Epidemik chaqnashlarni tekshirish asoslari. Shigellyoz kasalliklari ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Vaboda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va o'tkazish. Vabo kasalligi o'chog'ida epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkillashtirish. Vabo bemori aniqlanganda uchastka shifokorining vazifalari. A va Ye gepatitida epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. V, S va D gepatitda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Poliomielit kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Ichak guruhi infeksiyalari bo'yicha vaziyatli masalalar yechish. Aerozol infeksiyalar ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Difteriya kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Qizamiq kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Qizilcha kasalligi ustidan epidemioloik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Ko'kyo'tal kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Skarlatina kasalligi o'choqlarida epidemiologik tekshirish

o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish. MKI kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Gripp kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Epidemik parotitda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uni o'tkazish. Silda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning xususiyatlari. Sil kasalligining o'pka, teri shakllari ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni. Sil kasalligining oshqozon-ichak trakti va suyak shakllari ustidan epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va uning mazmuni, Moxov kasalligida epidemiologik nazorat. Kasalxona ichi infeksiyasida epidemiologik nazorat (bolalar va terapevtik bo'limlarida), Kasalxona ichi infeksiyasida epidemiologik nazorat (akusherlik, ginekologik va urologik klinikalarda), Yuqumli kasalliklar shifoxonalarining epidemiyaga qarshi ish tartibi, Yuqumli kasalliklar kabinetida amaliy ish olib borish. Shifokorlik uchastkalarida profilaktik ishlarni tashkillashtirish, MBM larida sanitar-epidemiologik rejim asoslari, maktabgacha ta'lim muassasalarida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, kasallanish, o'lim va yo'qotilgan kunlarni hisoblash va ularning interpretatsiyasi. O'rtacha kattaliklar, dispersiya, standart og'ishlar va ishonchlik oralig'i (intervali)ni hisoblash va ularning interpretatsiyasi, aerozol infeksiyalari bo'yicha vaziyatli masalalar echish, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktika markazida epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasini o'rganish, o'latda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish, quturishda epidemiologik nazorat. Quturishda profilaktik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni o'rganish, qora oqsoqda epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. KU isitmasida epidemiologik nazorat. Kuydirgida epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. O'zbekiston Respublikasida OIV- infeksiyasi va OITS etiologiyasi, patogenezi, epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati tashkillashtirish va o'tkazish. OITS /OIV/ etiologiyasi, patogenezi, epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati tashkillashtirish va o'tkazish. Bezgak epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati. Bezgakning etiologiyasi, klinikasi, tashxisoti. Bezgakning epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati. Geogelmintozlar epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati. Askaridozda epidemiologik nazorat. Biogelmintozlar epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati. Enterobiozda epidemiologik nazorat. Toshmali tif va Brill kasalligida epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Leyshmaniozda epidemiologik nazorat.

Mehnat fiziologiyasi. Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning organizmga ta'siri, oldini olish sog'lomlashtirish chora-tadbirlari. Toksikologik tadqiqotlarni o'tkazishni umumiy asoslari. Sanitar-texnik qurilmalarga qo'yiladigan gigienik talablar. Pestitsidlarni ko'llanilishda mehnat gigienasi. Ayollarni mehnat gigienasi. Shaxsiy himoya vositalarini ko'llanilishi. Ishlovchilar salomatligi. Ishlab chiqarish ob'ektlarida davlat sanitariya nazoratini o'tkazish. Turli sanoat ishlab chiqarish korxonalarida mehnat gigienasi.

#### **Ixtisoslik fanlar bloki:**

Aholi yashash joylari sharoitida insonlarga atrof-muhitning tabiiy va ijtimoiy omillarini ta'siri. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi ma'nbalar. Kimyoviy moddalar va pestitsidlarni gigienik me'yorlashtirish. Gigienik mezonlari, usullari. Atmosfera havosi, ichimlik suvi, suv havzalari va tuproq holatini gigienik baholash. Aholi turar joylari, davolash profilaktika muassasalari, turar joy va jamoat binolarini rejalashtirish va obodonlashtirish va sanitariya-sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Atrof-muhit obektlarining gigienik tafsiloti va ularning inson salomatligi uchun ahamiyati – havo, suv, tuproq va quyosh nuri. Ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazariya haqida tushuncha. Havo muhiti, suv, tuproq, quyosh nuri radiatsiyasining gigienik ko'rsatkichlarini tekshirish usullari. Ekologiyaning asosiy tamoyillari. Tashqi muhit va insonlar o'rtasidagi o'zaro taassurotlar. Mehnat gigienasi. Aholini sog'lom ovqatlanishining ahamiyati, gigienik talablar. Bolalar va o'smirlarning ta'lim- tarbiya va o'qitish sharoitlarining gigienik ahamiyati. Kommunal gigiena, shaxsiy gigiena, psixogigienaning dolzarb muammolari, birlamchi profilaktik masalalari.

Sogʻlom ovqatlanish asoslari va ovqatlanishning zamonaviy nazariyalari. Organizmining sutkalik energiya sarfini aniqlash. Asosiy moddalar almashinuvi, ovqatning spetsifik-dinamik taʼsirini va turli faoliyatlarga ketgan quvvat sarfini aniqlash. Aholini ovqatlanish holatini oʻrganish. Oziq-ovqat mahsulotlarining gigienik ekspertizasi (sut, goʻsht, kolbasa, baliq, un va non mahsulotlari, yogʻ va moylar, yaxna ichimliklar va bankali konservalar). Tayyor mahsulotlar kaloriyasi va tarkibidagi oziq moddalar miqdorini aniqlash. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi begona moddalarga baho berish. Profilaktik va parhez ovqatlanish, DSENM ovqatlanish gigienasi boʻlimida tashkiliy uslubiy ishlar. Ovqatlanish gigienasi boʻlimida ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratining asoslari. Umumiy ovqatlanish korxonalariga, savdo korxonalariga qoʻyiladigan gigienik talabalar va ularni nazorati. Bozorlarni sanitar-gigienik tekshirish qoʻyiladigan talablar. Sut, goʻsht, baliq, qandolat, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish korxonalariga qoʻyiladigan gigienik talablar va shu korxonalarni sanitariya nazorati. Oziq-ovqat mahsulotlarini sanitariya-epidemiologik ahamiyati va ovqatdan zaharlanish profilaktikasi.

Bolalar va oʻsmirlar jamoasining salomatlik holatini oʻrganishning gigienik asoslari. Oʻsuvchi organizmning oʻsish va rivojlanish qonuniyatlarining gigienik asoslari. Jismoniy rivojlanishning gigienik asoslari. Turli taʼlim muassasalarida-maktabgacha taʼlim muassasalari, tanyach maktablari, akademik litsey va kollejlarni loyihalashtirish va qurishning gigienik asoslari. Bolalar va oʻsmirlar faoliyat gigienasi. Organizmning ishlash qobiliyati va funksional holatini baholash usullari. TTMLarida oʻquv-tarbiyaviy, oʻquv va oʻquv-ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning gigienik mezonlari va baholash usullari. Bolalar va oʻsmirlarni ovqatlanishiga qoʻyiladigan gigienik talablar. Bolalar va oʻsmirlar oʻyinchoqlari, kiyimlari, oʻquv darsliklari, jihozlariga qoʻyilgan gigienik talablar. Oʻsmirlarni kasbga yoʻnaltirishning gigienik talablari. Yozgi sogʻlomlashtirish maskanlarida bolalar va oʻsmirlarni sogʻlomlashtirish ishlariga qoʻyilgan gigienik talablar. Rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalar va oʻsmirlar muassasalarining gigienik asoslari. Polimer qurilish materiallariga qoʻyilgan gigienik talabalar. Bolalar va oʻsmirlar muassasalarida ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazoratini olib borish tartiblari. Bolalar va oʻsmirlar jamoasi orasida sogʻlom turmush tarzini tashkillashtirish. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirish.

#### **Tanlov fanlari:**

*Taʼlim yoʻnalishi boʻyicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qoʻyilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.*

#### **Qoʻshimcha fanlar bloki:**

taʼlim yoʻnalishi talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari boʻyicha qoʻshimcha ravishda chuqur bilim olishga boʻlgan ehtiyojini qondirishi;

harbiy tibbiy tayyorgarlik, fuqaro muhofazasi va fuqaro muhafazasining tibbiyot xizmati boʻyicha amalga oshirilishi lozim boʻlgan choralarni amalda qoʻllashni taʼminlashi; tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatda jabrlangan aholiga tibbiy yordam koʻrsatish va oʻchoqni bartaraf etish uchun FMTX kuch va vositalarini, zaruriy mol-mulk bilan taʼminotini bilishi va foydalanishi uchun zamin yaratishi;

taʼlim sifatiga qoʻyilayotgan talablar va mehnat bozori konʻyukturasi tez oʻzgarayotgan sharoitda bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv rejalar va fan dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan boʻlishini taʼminlanishi;

kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini toʻgʻri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarning barqarorligini taʼminlashi lozim.

### **3.2. 5510300-Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat taʼlim yoʻnalishi oʻquv rejasidagi yuklama hajmi**

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari oʻquv ishlarini oʻz ichiga olgan oʻquv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan

holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning normativ muddati besh yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 256 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy va amaliy ta'lim - 63 - 70%;

attestatsiya - 8 - 10 %;

ta'til - 12 - 16 %;

malakaviy amaliyot - 6 - 12 %.

Nazariy va amaliy ta'lim hajmi "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot" bilim sohasiga muvofiq fanlar bloklari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar	10 - 15 %;
umumkasbiy fanlar	45 - 55 %;
ixtisoslik fanlar	20 - 30 %;
qo'shimcha fanlar	3 - 7 %.

O'quv yilida ta'til davrining umumiy hajmi 7 - 10 hafta qilib belgilanadi.

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, tibbiy profilaktika ishi, aholi salomatligi, atrof-muhit gigienasi, ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazorati, bolalar va o'smirlar gigienasi, turli ta'lim muassasalari, ta'lim-tarbiya jarayoni, ovqatlanish gigienasi, davlat va nodavlat oziq-ovqat korxonalarida davlat sanitariya nazorati olib borish, kommunal gigiena, suv, tuproq, aholi turar joylari, mehnat gigienasi, radiatsion gigiena, turli ishlab chiqarish korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayoni, bosqich, radiatsion xavfsizlik, shaxsiy himoya vositalari, sanitariya maorifi ishi, epidemiologiya, yuqumli va somatik kasalliklar epidemiologiyasi, OITS, VICH.





Ишлаб чикувчилар, келишилган асосий тиббиёт ташкилотлари ҳамда кадрлар истеъмолчилари

**ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:**

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги  
Республика тиббий таълимни ривожлантириш маркази



Директор  **Н.Р. Янгиева**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Тошкент тиббиёт академияси

Ректор  **Л.Н. Туйчиев**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**КЕЛИШИЛГАН:**

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги

Вазирнинг Ўринчи ўринбосари  **Б.К. Юсупалиев**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги  
Фан ва тиббий таълим Бош бошқармаси

Бошқарма бошлиғи  **Ў.С. Исмаилов**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_



Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги  
Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимни  
Ривожлантириш маркази

Директор  **Б.Х. Рахимов**

201\_ йил « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

М.Ў.